

## GEODEZIYA VA KARTAGRAFIYA SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI

**Karimova Inobat**

“TIQXMMI”MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutining 2-bosqich talabalari

**Xudayqo'lova Madina**

“TIQXMMI”MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutining 2-bosqich talabalari

**Abduhalilov Abdumutal**

“TIQXMMI”MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutining 2-bosqich talabalari

**Muxammadov Tuyg'un**

“TIQXMMI”MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutining 2-bosqich talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7221694>

*Annatsiya.* Ushbu maqolamizda, geodeziya va kartografiya sohasining maqsadi, sub'ektlari, ob'ektlari va bu sohaning vazifalari shuningdek shu sohani himoya qiluvchi davlat organlari va qonun hujjatlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** geodeziya, kartografiya, “Xalq so'zi” gazetasi, Senat, Qonunchilik palatasi, Vazirlar Mahkamasi, niviler, geofazoviy, tematik xarita, atlas.

## ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ В ОБЛАСТИ ГЕОДЕЗИИ И КАРТОГРАФИИ

*Аннотация.* В этой статье вы получите подробную информацию о цели, субъектах, объектах и задачах области геодезии и картографии, а также о государственных органах и правовых документах, защищающих эту область.

**Ключевые слова:** геодезия, картография, газета Народный выбор, сенат, законодательная палата, кабинет, нивилер, геопространственный, тематическая карта, атлас.

## LEGAL FOUNDATIONS OF GEODESY AND CARTOGRAPHY

*Abstract.* Is this article, you will get detailed information about the purpose, subjects, objects and tasks of the field of geodesy and cartography, as well as the state bodies and legal documents that protect this field.

**Keywords:** geodesy, cartography, “Xalq so'zi” newspaper, Senate, Legislature, Cabinet of Ministers, geospatial, thematic map, atlas .

## KIRISH

Bilamizki, har bitta soha rivojlanib borgani sayin unda turli xil o'zgarishlar, yangiliklar va shu o'rinda huquqiy himoyaga muhtoj tomonlari ham vujudga kela boshlaydi. Chunki, yaratilayotgan barcha sohalar insoniyatning hayotini yaxshilash, yengillashtirish, shuningdek kelajakni faravon qilish uchun yaratiladi, va bu yaratilayotgan soha rivojlanib borar ekan, doimiy tarzda huquqiy tomonlama tartibga solib turishni taqazo etadi. Biz ham hozir yoritib bermoqchi bo'lgan “Geodeziya va kartografiya” sohamiz inson hayotining ajralmas bir bo'lagiga aylanib bo'lgan desak adashmagan bo'lamiz.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ilk bora “Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi” qonun 1997-yilda qabul qilingan. Keying yangi tahrirdagi “Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi” O'zbekiston Respublikasining qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 18-fevralda qabul qilingan va Senat tomonidan 2020-yil 19-iyunda ma'qullangan. 2020-yilning 2-iyul kuni qonun qabul qilindi va “Xalq so'zi” gazetasida e'lon qilindi. Qonun hujjatlariga muvofiq ushbu qonun ommaviy axborot

vositalarida e'lon qiliganidan so'ng 3 oy o'tgach ya'ni 4-oktabrda kuchga kirdi. Ushbu normativ hujjat 8 bob 48 moddadan iborat.

## **TADQIQOT NATIJALARI**

Dastlab geodeziya va kartografiya sohasini tushuntirib o'tsak. Geodeziya- yer shaklini, tashqi gravitatsiya maydonini, yer satxining koordinata nuqtalarini va ularning vaqt bo'yicha o'zgarishlarini aniqlash bo'yicha ilmiy, ta'lim, ishlab chiqarish hamda boshqa faoliyat jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar sohasidir. Geodeziya va kartografiya- yer shaklining, tashqi gravitatsiya maydonining parametrlarini, yer sathining koordinata punktlarini va ularning vaqt bo'yicha o'zgarishlarini aniqlashga, davlat geodeziya, gravimetriya va nivelir tarmoqlarini, doimiy faoliyat ko'rsatadigan sun'iy yo'ldosh orqali kuzatish stansiyalari tarmog'ini yaratish, rivojlantirish va ishlash holatida saqlab turishga, davlat kadastrlari, geofazoviy ma'lumotlar bazalarini va geoaxborot tizimlari uchun topografik, tematik xaritalar, rejalarini va kartagrafik asosni yaratishga hamda yangilashga qaratilgan ilmiy, ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyati hisoblanadi. Endi esa ushbu qonun hujjatining maqsadiga qisqacha to'xtalib o'tsak. Ushbu qonunning maqsadi, geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Har bitta sohaning o'z faoliyat prinsipi bo'lgani singari bu sohaning ham asosiy prinsipi mavjud. Geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshirishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- \* geodeziya va kartografiya faoliyatining tizimliliigi hamda uzluksizligi;

- \* geodeziya va kartografiyaga doir materiallarning to'liqligi, ishonchliligi hamda dolzarbligi;

- \* xaritalar va rejalarini yaratish hamda yangilashda shartli belgilarni birxillashtirish va geografik obyektlarning nomlaridan bir xilda foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi hududi, yer shari hududi, kosmik fazo, shu jumladan tabiiy hamda sun'iy osmon jismlari geodeziya va kartografiya faoliyatining ob'ektlaridir.

Geodeziya va kartografiya faoliyatining sub'ektlari quyidagilardan iborat:

- \*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;

- \*O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi;

- \* O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;

- \*Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;

- \* Mahalliy davlat hokimiyati organlari;

- \* Geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshirish huquqiga doir litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

- \*Geodeziya va kartografiyaga doir materiallarni saqlovchi yuridik va jismoniy shaxslar.

## **MUHOKAMA**

Geodeziya va kartografiyaga oid ishlarning turlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1.Umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar;

2.Maxsus ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar.

Endi esa bularni alohida tushuntirib o'tsak.

Umumdavlat ahamiyatiga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- \* Yer shaklining va tashqi gravitatsiya maydonining parametrlarini aniqlash;
- \* davlat geodeziya, nivelir, gravimetriya tarmoqlarini , geodezik zichlashtirish tarmoqlarini yaratish, rivojlantirish va ishlash holatida saqlab turish ;
- \* grafik, raqamli, fotosurat shaklidagi va boshqa shakllardagi davlat topografik xaritalari hamda rejalarini yaratish, yangilash va nashr etish ;
- \* O'zbekiston Respublikasining davlat kartografiya-geodeziya faoliyatini shakllantirish va yuritish;
- \* geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni bajarishda o'lchovlar birligini va metrologiya nazoratini ta'minlash;
- \* ushbu moddada sanab o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va tajriba-texnologik ishlarni amalga oshirish;
- \* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga binoan amalga oshiriladigan, natijalari umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan boshqa geodeziya va kartografiyaga oid ishlar.

Maxsus ahamiyatga molik geodeziya va kartografiyaga oid ishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- Muhandislik qidiruvlarida, binolarni, inshootlarni qurish hamda ulardan foydalanishda, yer tuzishda, davlat kadastrlarini yuritishda va boshqa ishlarda geodezik zichlashtirish tarmoqlarini qurish hamda rivojlantirish;
- Maxsus ahamiyatga molik geografik axborot tizimlarini yaratish va yuritish;
- Grafik, raqamli, fotosurat shaklidagi hamda boshqa shakllardagi maxsus ahamiyatga molik tematik xaritalar, rejalar va atlaslarni tuzish hamda nashr etish;
- Muhandislik qidiruvlarini amalga oshirish chog'ida geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ta'minlash maqsadida Yerni masofadan turib zondlash.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi ushbu qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazishni hamda mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirishni, davlat boshqaruv organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ -huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini nazorat qiladi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining " Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risidagi" qonuni.
2. Geodeziya 1-qism o'quv qo'llanma. X.Muborakov.
3. Geodeziya. A.Qodirov.